

**O'zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirining  
2024-yil 22-oktyabrdagi  
BR-46-sonli buyrug'iga  
1-ILOVA**

**"Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining  
Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining (JIDU) Kuzatuv kengashi (keyingi o'rnlarda Kuzatuv kengashi deb ataladi) faoliyatini tartibga soladi.
2. Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son hamda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda uning tarkibidagi tashkilotlarining (keyingi o'rnlarda Universitet deb ataladi) boshqaruv organi hisoblanadi.
3. Kuzatuv kengashi yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi. Kuzatuv kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi va Universitetni samarali boshqarishda strategik organ hisoblanadi.
4. Kuzatuv kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek Universitet nizomi va ushbu nizomga muvofiq amalga oshiradi.
5. Kuzatuv kengashi tarkibiga vazirlik va idoralar, kadrlar buyurtmachilar, jamoatchilik vakillari, homiylar va JIDU bitiruvchilar hamda Universitet faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan shaxslar kirishi mumkin.
6. Universitet Kuzatuv kengashining tarkibi va Kengash to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## **II. Kuzatuv kengashining vazifalari va vakolatlari**

### **7. Kuzatuv kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

Universitet ta'limga yaroqchi bo'yicha bakalavr va magistrler tayyorlash sifati hamda ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini baholashning zamonaviy tizimini tashkil etish;

ta'limga yaroqchi sifati va natijadorligini oshirish, kelgusida mehnat bozori rivojlanishini hisobga olgan holda mutaxassislar va ilmiy-texnika kadrlarini tayyorlashning istiqbolli yo'naliшlarini belgilash;

mutaxassislar tayyorlash sifatiga ko'maklashadigan istiqbolli dasturlarni amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish, fundamental (amaliy) ilmiy-texnika ishlanmalarini amalga oshirish, o'quv va ilmiy jarayonlarni hamda amaliyotni oqilona integratsiyalash;

pedagog kadrlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ularning malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o'tishlarini tashkil etish;

Universitet faoliyatini izchil rivojlantirish maqsadida homiylik ko'magi, texnikaviy yordam (grantlar) mablag'lari va boshqa budgetdan tashqari mablag'larni jalg'ish etish;

Universitetda kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, Universitet rektoriga xodimlar va talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish to'g'risida tavsiyanomalar berish;

iqtidorli talabalarni yetakchi xorijiy ta'limga muassasalariga o'qish, bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga yuborish bo'yicha takliflami shakllantirish, ular uchun maxsus stipendiyalar ta'sis etish;

Universitet professor-o'qituvchilarini, doktorantlari, izlanuvchilarini va talabalari uchun xalqaro tajriba almashuvlami tashkil etish borasida ko'maklashish;

o'qitishning ilg'or shakl va usullari, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'limga resurslarini ta'limga jarayoniga joriy etish, shu jumladan, yuqori tezlikdagi internet tarmog'idan foydalaniшni hamda zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashga ko'maklashish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

ta'limga yaroqchi bo'yicha bakalavr va magistrler tayyorlash sifatini oshirish, kelgusida mehnat bozori rivojlanishini hisobga olgan holda mutaxassislar va ilmiy-texnika kadrlarini tayyorlashning istiqbolli yo'naliшlarini belgilash;

Universitetning moddiy-texnika, o'quv-metodik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, binolarini ta'mirlash va jihozlash, hududlami obodonlashtirish va boshqa masalalarni muvofiqlashtirishga ko'maklashish.

### **8. Kuzatuv kengashining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:**

Universitetning uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytinglarining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlami belgilash hamda ulaming amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

Universitetning yillik hamda uzoq muddat uchun shakllantiriladigan moliyaviy-iqtisodiy rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

Universitet rektori va prorektorlari mehnatiga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga (KPI) asoslangan rag'batlantirish tartibini belgilash;

Universitet oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

Universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga monitoring o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

ilm-fan va innovatsiyalami rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, Universitetning innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini belgilash;

Universitetning budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan, xarajatlarning taqsimlanish ulushini belgilash;

Kuzatuv kengashi muayyan vakolatlarini Universitet Akademik kengashiga topshirish, shuningdek, Universitet Akademik kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olish bo'yicha alohida qarorlar qabul qilish;

Kuzatuv kengashi amaldagi qonunchilik hujjalari, mazkur nizomga va Universitetning Nizomiga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

**9.** Kuzatuv kengashi quyidagi masalalami ko'rib chiqish va qaror qabul qilish bo'yicha o'z vakolatlarini Universitet Akademik kengashiga topshiradi:

**Universitet hamda uning huzuridagi tashkilotlarning rahbar va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga (KPI) asoslangan rag'batlantirish tartibini belgilash (*Universitet rektori va prorektorlari bundan mustasno*);**

**Universitet boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni (*universitet bo'linmalarini yaratish va ular faoliyatini tugatish, shtat birliklarini qayta ko'rib chiqish va hokazoni*) amalga oshirish va tasdiqlash;**

**ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash;**

## **Universitetning o'rta muddat uchun daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;**

**10.**Kuzatuv kengashi a'zolari o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi vakolatlarga ega:

Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalami muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

Universitet hamda uning tarkibidagi tashkilotlarda ta'lif jarayonini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha Kengashga takliflar kiritish;

Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha xulosa taqdim etish;

Kuzatuv kengashidan zarur ma'lumotlar va axborotlarni belgilangan tartibda olish;

Kuzatuv kengash to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga kiritish.

## **III. Kuzatuv kengashi tarkibi, ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalar**

**11.**Kuzatuv kengashida ishtirok etishning ixtiyoriyligi va Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli masalalami hal etishda uning barcha a'zolarining teng huquqliligi tamoyillari asosida shakllantiriladi.

Kuzatuv kengashi, qoidaga ko'ra, Kuzatuv kengashi raisi, raisning o'rinnbosari, kotib va a'zolaridan iborat toq sondan iborat tarkibda shakllantiriladi. Kuzatuv kengashi raisi va raisning o'rinnbosari boshqa ishga o'tgan taqdirda ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar tomonidan Kengashga rahbarlik vazifalari davom ettiriladi. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda va Kuzatuv kengashining roziligi asosida a'zolik faoliyatini davom ettirishiga ruxsat beriladi.

Kuzatuv kengashining tarkibi o'n bir nafar a'zodan kam hamda juft sonda bo'lishi mumkin emas. Kuzatuv kengashining shaxsiy tarkibi Universitet hayotida faol qatnashib kelayotgan respublika va xorijda ko'zga ko'ringan vakillar tomonidan yangilanish to'g'risida taklif kiritilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Kuzatuv kengashining raisi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Universitet rektori lavozimiga ko'ra Kuzatuv kengashining raisi o'rinnbosari sifatida tayinlanadi.

**12.**Kuzatuv kengashi tarkibining kamida 70 foizi tegishli vazirlik, idoralar, kadrlar buyurtmachilari, jamoatchilik vakillari va homiylardan iborat bo'ladi. Universitet rektori va prorektorlarining lavozimiga tayinlash va ozod etish masalalari Kuzatuv kengashi tomonidan muhokama qilinadi va yakuniy qaror

qabul qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hay'atiga kiritiladi.

**13.**Diplomatik akademiya, Universitet huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti, "Xalqaro munosabatlar: siyosat, iqtisodiyot, huquq" jumali tahririyati rahbarlarini Universitet rektori tomonidan lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish masalasini kelishadi;

**14.**Universitetni rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalami hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantiradi.

**15.**Kuzatuv kengashi raisi:

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibini belgilaydi va uni chaqiradi;

Kuzatuv kengashi qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Kuzatuv kengashining yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek Kuzatuv kengashining yillik ish rejasi bajarilishi to'g'risidagi hisobotni Kengash muhokamasiga qo'yadi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda Kuzatuv kengashi nomidan vakillik qiladi;

Kengash a'zolariga yuklangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ularning ishini muvofiqlashtiradi;

Kuzatuv kengashining samarali ishlashini ta'minlash uchun boshqa vakolatatlami ham amalga oshiradi.

**16.**Kuzatuv kengashi raisi o'rribosari:

Kuzatuv kengashi raisi faoliyatini samarali bajarilishiga ko'maklashadi;

majlis kun tartibiga kirgan masalalar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar hamda zarur bo'lganida tegishli hujjatlar bilan ta'minlaydi;

Kuzatuv kengashi qarorlarini bajarilishini nazorat qiladi;

Kuzatuv kengashining yillik ish rejasi rioya etilishi va uning faoliyatini samarali bajarilishini muvofiqlashtirib boradi;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda Kuzatuv kengashi nomidan vakillik

qiladi;

Kuzatuv kengashining raisi qatnasha olmaganida, uning faoliyatini yuritadi va tegishli vakolatatlami amalga oshiradi.

**17.**Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalami muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

Universitetda (hamda uning tarkibidagi tashkilotlarda) ish jarayonini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha xulosa taqdim etish.

**18.** Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi tarkibida o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

Kuzatuv kengashi a'zolari majlisda shaxsan yoki masofaviy tarzda qatnashishi kerak. Ushbu tartiblarda ishtirok etish imkon bo'lмаган тақдирда, Kuzatuv kengashi a'zosi majlisning kun tartibi bo'yicha o'z fikrini kengashga yozma ravishda taqdim etishga haqlidir.

Kengash a'zosi kengashning yig'ilishlarida surunkali 3 (uch) marta uzrli sabablersiz ishtirok etmagan taqdirda, u Kuzatuv kengash a'zolari tarkibidan chiqariladi.

**19.** Kuzatuv kengashi kotibi:

Kuzatuv kengashi faoliyatini tashkiliy-texnik ta'minlaydi;

Kuzatuv kengashi majlisiga barcha zarur hujjatlaming o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

majlisni o'tkazish muddatlari va joyini Kuzatuv kengashi raisi (u qatnasha olmaganida esa rais o'rindbosari) bilan kelishadi;

kun tartibi masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashi majislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Kuzatuv kengashi a'zolari va taklif etilgan shaxslarni majlisning sanasi, kun tartibi loyihasi, majlisni o'tkazish vaqt va joyidan xabardor qiladi;

Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishi monitoringini yuritadi;

Kuzatuv kengashi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalami Kuzatuv kengashi a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

Kuzatuv kengashi kotibi kengash a'zosi hisoblanadi.

#### **IV. Kuzatuv kengashi faoliyatini tashkil etish**

**20.** Kuzatuv kengashining vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha qarorlari uning majlislarida qabul qilinadi.

**21.** Kuzatuv kengashi o'z ishini o'zi tasdiqlagan reja asosida amalga oshiradi. Kuzatuv kengashi majlisi zaruriyatga ko'ra axborot-kommunikatsiya vositalarini qolagan holda masofaviy tarzda yoki yozma so'rovnama asosida o'tkaziladi.

**22.** Kuzatuv kengashi raisi tomonidan a'zolarning yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin. Iltimosnomalarda navbatdan tashqari majlisni chaqirishning sabablari va asoslari bayon qilinishi kerak.

**23.** Kuzatuv kengashi a'zolari masalani Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritish to'g'risida yozma taklif yuborishga haqlidir. Masalani kun

tartibiga kiritish to'g'risidagi taklifda masalaning aniq ta'rifi, ma'ruzachining familiyasi, ismi va otasining ismi, taklif etilayotgan qaror loyihasi va Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibi masalasi bo'yicha materiallar ko'rsatilishi kerak.

**24.** Kuzatuv kengashi majlisini Kuzatuv kengashi raisi, u bo'limgan taqdirda esa raisning o'rribosari boshqaradi. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashining tayinlangan a'zolari umumiy sonining ko'pchiligidan iborat bo'lishi kerak.

**25.** Majlisni o'tkazish uchun kvorum yoki rais va uning o'rribosari bo'limganda Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazishning yangi sanasi e'lon qilinadi.

**26.** Kuzatuv kengashi majlisida ko'rib chiqiladigan masalalarning xususiyatidan kelib chiqib vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlaming rahbarlari va mutaxassislari, Universitetning professor-o'qituvchilari va xodimlari, boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

**27.** Kuzatuv kengashi raisiga Kuzatuv kengashi majlisi o'tkaziladigan sanagacha kamida 5 (besh) kalendar kundan kechikmay Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan:

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibi loyihasi;

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibi masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashi qarorlari loyihalari;

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibi masalalari bo'yicha zarur hujjatlar va axborot materiallari taqdim etiladi.

**28.** Kuzatuv kengashi raisi yoki rais o'rribosari tomonidan ma'qullangan kun tartibi loyihasi va tegishli materiallar Kuzatuv kengashi majlisi o'tkaziladigan sanagacha 3 (uch) kalendar kundan kechikmay Kuzatuv kengashi a'zolariga yuboriladi.

Ayni bir vaqtida Kuzatuv kengashining har bir a'zosiga Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazilishi to'g'risidagi xabamoma yuboriladi. Xabamoma elektron, rasmiy xat, telefonogramma orqali yoki Kuzatuv kengashi a'zosiga shaxsan topshirish yo'li bilan yuborilishi mumkin hamda Kuzatuv kengashi majlisi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy to'g'risidagi ma'lumotlami o'z ichiga olishi kerak.

**29.** Kuzatuv kengashi majlisiga axborotlar (materiallar) Kuzatuv kengashining kotibi tomonidan Universitetning tegishli bo'linmalari bilan birgalikda tayyorlanadi.

**30.** Zaruriyat tug'ilganda, Kuzatuv kengashi majlisi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy Kuzatuv kengashi a'zolari ko'pchiligining roziligi bilan o'zgartirilishi (yoki kechiktirilishi) mumkin.

**31.** Kuzatuv kengashi majlisida qarorlar kengash a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibi masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi

bir ovozga ega bo'ladi. Kuzatuv kengashi a'zolari ovozlari teng bo'lgan taqdirda, majlisga raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Kuzatuv kengashining a'zosi Kengashning boshqa a'zosi nomidan ovoz berish huquqiga ega emas.

Kuzatuv kengashi majlisida bayonnomma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasi majlis o'tkazilgan sanadan boshlab 5 (besh) kalendar kundan kechikmay rasmiylashtiriladi.

**32. Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasida:**

Majlis o'tkazilgan joy va vaqt;

Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etgan shaxslar;

Kuzatuv kengashi majlisining kun tartibi;

ovozi berishga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

**33. Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasi rais (raislik qiluvchi) va Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan imzolanadi.**

Kuzatuv kengashining sirdan ovoz bergan a'zolarining yozma shaklda ifodalangan va ularning o'z qo'llari bilan imzolangan yozma bayoni Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

**34. Kuzatuv kengashi bayonnomalari asl nusxalarining saqlanishini Kuzatuv kengashi kotibi ta'minlaydi.**

**35. Kuzatuv kengashi raisi (raislik qiluvchi) tomonidan tasdiqlangan majlis bayonnomalari Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan ular tasdiqlangach, 3 (uch) kalendar kun ichida Kuzatuv kengashi raisi va a'zolariga yuboriladi.**

Kuzatuv kengashi bayonnomasining asl nusxasi va uning materiallari Universitetda saqlanadi.

Universitetning rektori Kuzatuv kengashi hujjatlarining belgilangan tartibda saqlanishi uchun mas'uldir.

**36. Kuzatuv kengashi kotibi Kuzatuv kengashi a'zolari yordamida Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda o'rganadi va ko'rib chiqadi, zaruriyat boiganda, Kuzatuv kengashi raisiga (rais o'rinxosariga) tegishli takliflar kiritadi.**

## **V. Yakuniy qoidalar**

**37. Kuzatuv kengashi o'z vakolati doirasiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilsa yoki o'z vazifalarini to'liq ta'minlay olmasa, o'rnatilgan tartibda tarqatib yuboriladi. Bunda Kuzatuv kengashining yangi tarkibi mazkur nizomning III-bobida nazarda tutilgan talablar asosida qayta shakllantiriladi.**

**38. Kuzatuv kengashi a'zolariga mazkur nizomda belgilanmagan vakolatlarga ega bo'lishlariga, Universitet rektorining qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlariga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.**

**39.**Kuzatuv kengashining faoliyatiga davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

**40.**Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**41.**Mazkur nizom tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**42.**Mazkur nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Kuzatuv kengashi a'zolari bilan muhokama qilinib, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.